

Termiz shahrida OCHIQ MULOQOT bo'lib o'tdi.



AOKA hududiy boshqarmasi xodimi Odil Xudoyqulov, jurnalist va blogerlar, axborot xizmatlari va keng jamoatchilik vakillari ishtirokida Termiz shahridagi "Matbuot uyi" da o'tkazilgan tadbirda FHDYO Termiz shahar bo'limi boshlig'i Maftuna Siddiqova tomonidan sohaga oid qabul qilinayotgan normativ hujjatlar, ishlab chiqilayotgan qonun loyihalari to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Muloqot savol-javob shaklida qizg'in davom etar ekan, soha vakillarining har bir savollariga batafsil javoblar berildi.

Tadbir yakunida esa, FHDYO Termiz shahar bo'limiga tashrif buyurilib, sohaning ish jarayonlari bilan yaqindan tanishildi.